

## TABIY FAN (SCIENCE)LAR TA'LIMINI SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

*Xasanova Sevara G'iyosiddinovna*  
*Prezident administrasiyasi huzuridagi*  
*Ta'limni rivojlantirish respublika*  
*ilmiy- metodik markazi*

*O'quv -metodik komplekslarni ishlab chiqish*  
*va joriy etish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida Tabiiy fanlar (SCIENCE) ni o'qitish mazmunini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan bo'lib, Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning asosiy xususiyatlari, shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'quvchi shaxsidagi rivojlantiriladigan ijobiy individual xususiyatlariga ahamiyat qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Tabiiy fanlar (SCIENCE) ta'limi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar, ta'limda muvaffaqiyat muhiti, insonparvarlashtirish, o'quvchi shaxsi, mustaqillik, tashabbuskorlik sifatleri, tabiiy-ilmiy savodxonlik, tolerant munosabat.

Dunyoda, erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ma'naviy-axloqiy jihatdan mukammal hamda rivojlangan mamlakatlar darajasida raqobatbardosh komil insonni tarbiyalash, ta'lim va ma'rifatni yuksaltirish, jahon andozalariga javob beradigan yangi avlodni voyaga yetkazish, jumladan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini oshirish, Tabiiy fanlar (SCIENCE) ni o'qitish mazmunini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ulardan asosiy maqsad, har tomonlama yetuk, barkamol, o'z fikriga ega, muammoli vaziflarni hal etishga qodir, tabiat va jamiyat munosabatlarini to'g'ri anglay olgan shaxslarni tarbiyalashdir.

Shaxsning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: uning ijtimoiy yo'nalishi, dunyoqarashi va dunyoni anglash bilan bog'liq ijtimoiy mavqei; individual xususiyatlari—shaxsiy qiziqishlari, xatti-harakati, faoliyatining sababi va mazmuni; maqsadini oldindan bilish; biron narsaga erishishdagi muvaffaqiyat; shaxsning hissiy hayoti, ma'naviy madaniyati mazmuni va xususiyatlarini belgilaydigan o'z ehtiyojlarini (ma'naviy) aniq bilish, ehtiyojlari maqsadini va mazmunini tushunish; doimo yangi qiziqish va ehtiyojlarni yuzaga keltirish va ularni qoniqtirish.

O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchi shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiyada kommunikativ metodlardan keng foydalaniladi, ularning ayrim asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi: 1. Har bir o'quvchiga buyuk shaxs sifatida qarash, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish. 2. Ta'limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda o'quvchi o'zini shaxs sifatida sezsin, unga bo'lgan e'tiborni tuysin. 3. O'quvchiga tazyiq o'tkazmaslik va uning kamchiligini bo'rttirmaslik; 4. Bilimlarni o'zlashtirmasligi, o'zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni o'quvchining shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish; 5. Ta'limda muvaffaqiyat muhitini tashkil etish, o'quvchiga o'qishda muvaffaqiyat qozonishga yordam berish, uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish. O'quvchiga atrofdagilarning har biri o'zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoaga aloqadorlik hissini rivojlantirish. 6. O'quvchining hurmati va ishonchini qozonish, o'ziga ham shaxs nuqtai nazaridan qarash.

Ta'lim jarayonlarida shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv texnologiyasidan foydalanish K.Rodgers nomi bilan bog'liq. Unda o'qitishning ahamiyati, o'qituvchining roli, uning o'quvchilar bilan o'zaro munosabati haqidagi g'oyalari o'qitishni insonparvarlashtirish asosiga qo'yilgan. Bunday o'qitish natijasida, o'quvchilarda rivojlanish kuzatilgan, ularning o'z-o'zini namoyish etish qobiliyati yanada rivojlangan, bu o'z navbatida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasining va darslarda ishtirok etish holatining yaxshilanishiga olib kelgan.

O'qitishda shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv: Birinchidan: O'quvchilarning individualligini shakllantirishni talab etadi. Ikkinchidan: O'quvchi fikrlashda erkin, harakatchan bo'ladi, bu esa o'qituvchidan o'quvchi bilan o'zaro munosabatda yangicha yondashuv va texnologiyalarni qo'llashni talab etadi. Uchinchidan: Zamonaviy ta'lim muassasalari o'qituvchi va o'quvchi munosabatini insonparvarlashtirishga muxtoj, mazkur yondashuv boshqa pedagogik yondashuvlar doirasida yechilmaydigan o'qitish vazifasini yechishga imkon beradi, uning bu imkoniyati bugungi zamonaviy pedagogikaning talabidir.

Tabiiy fanlar (SCIENCE) ta'limi jarayonlarida o'qituvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan foydalanganida quyidagi shartlarga qat'iy rioya etishi kerak: har bir o'quvchini alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olishi; o'quvchini hurmat qilishi; o'quvchining ruhiy holatini tugri baxolay olishi; o'quvchining xoxish-istak, qiziqishlarini inobatga olishi; har bir o'quvchiga tolerant munosabatda bo'lishi; o'quvchining kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi; har bir o'quvchi uchun qulay ta'lim muhitini yaratishi; o'quvchilarning mustaqil yoki kichik guruhlariga erkin ishlashlari uchun

imkoniyat yaratish; o'quvchilarni o'z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati

samaradorligini aniqlash, yutusalarning omillari va yo'l quyilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilishga o'rgatish; ta'lim jarayonida hech bir o'quvchiga tazyiq o'tkazmaslik; o'quvchining kamchiliklarini bo'rttirib ko'rsatmaslik; bordi-yu, o'quvchi tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, ta'lim jarayonida o'zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat'iy xulosa chiqarimasdan, buning sabablarini aniqlash; aniqlangan sabablar asosida o'quvchining sha'ni, gururiga ziyon etkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, o'zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish; ta'lim jarayonida har bir o'quvchi uchun "muvaffaqiyat muhiti"ni yarata olish; har bir o'quvchiga ta'lim olishda muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish; o'quvchining qobiliyatini o'stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish.

Mashg'ulotlarini tashkil etishda pedagoglar o'quv axborotlarining o'quvchilar bilim, ko'nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqitira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga aloxida e'tibor qaratishlari zarur.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchi shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalaydi. Bunda o'quvchini ta'lim tizimiga moslashtirmay, balki o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishi uchun imkon beriladi, uning o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil o'qish, o'zligini namoyon etish, faollashtirish xususiyatlari asosida anglash, mushohada qilish, o'z amaliy faoliyatida sinab ko'rish, yangi g'oya va fikrlarni bildirish, mavjud muammolar yechimining samarali yo'l larini qidirish uchun erkinlik berish, o'quvchining ijodiy, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi.

Har qanday o'quvchi o'ziga xos takrorlanmas tabiati, xarakter xususiyatini faollashtirish, namoyish qilishga intiladi. Bu jarayonda o'quvchi o'z qobiliyatlarini rivojlantirishi, mustaqil fikrlashi, tanqidiy fikrlashi va o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishda o'qituvchi o'quvchilar uchun shunday muhit yaratishi kerakki, har bir o'quvchi bilim olishdagi xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olib, o'z-o'zini namoyon qila olsun. Ta'lim jarayoni nafaqat axborot, balki rivojlantiruvchi ham bo'lishi kerak. Umumta'lim maktablarida Tabiiy fanlar (SCIENCE)ni o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning joriy etilishi o'quvchilarda tabiat bilan bog'liq o'quv materiallarini yuqori darajada o'zlashtirishlariga zamin yaratadi.

---

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘uxati**

1. Беспалко В.П., Татур Ю.Г. Системно-методическое обеспечение учебно-воспитательного процесса подготовки специалистов. - М.: «Высшая школа», 1988.
2. Karimova G.Q. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish imkoniyatlari. Zamonaviy ta’lim-2019.
3. Крюкова Е.А. Личностно-развивающие образовательные технологии: природа, проектирование, реализация. - Волгоград: «Перемена», 1999. -С. 196.
4. Митина Л.М. Личностное и профессиональное развитие человека в новых социальных условиях. // Журнал «Вопросы психологии», М., 1997, № 4. -С. 28-38.
5. Хохлова С. Мониторинг качества школьного образования: Дис. канд. пед. наук. - Тюмен, 2003.
6. Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. Вып. 2. - М., 1996.
7. Sherov D. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda pedagogik klasterning ahamiyati. academic research in educational sciences. Volume 2 | ISSUE 9 | 2021.